



## O'ZBEKISTONDA ZIYORAT TURIZMI GIDLARINI TAYYORLASHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

**Soxibova Muslimaxon Xolmatjon qizi**  
O'zbekiston Respublikasi Turizm  
qo'mitasi huzuridagi Turizmni rivojlantirish  
ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol25\\_iss2/a44](https://doi.org/10.55439/ECED/vol25_iss2/a44)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizmga gidlarni tayyorlashning nazariy asoslari, gidlarni tayyorlashda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar, ziyorat turizmini rivojlantirishda gidlarning o'rni, O'zbekistonda gidlar faoliyati bilan bog'liq muammo va kamchiliklar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada gidlarni tayyorlashda xorij malakasi va uni mamlakatimizga joriy etish usullari ham tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar.** turizm, ziyorat turizmi, gid, gid-tarjimon, ekskursiya, ekskursiya yetakchisi, tur, sayyoh, ekskursant, madaniy meros, turistik resurs.

## ТРЕБОВАНИЯ К ПОДГОТОВКЕ ПАЛОМНИЧЕСКИХ ГИДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Сохибова Муслимагон**  
докторант научно-исследовательского института  
развития туризма при Комитете туризму  
Республики Узбекистан

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются теоретические основы подготовки гидов в сфере туризма, реформы в подготовке гидов в нашей стране, роль гидов в развитии паломнического туризма, проблемы и недостатки, связанные с деятельностью гидов в Узбекистане. Также в статье анализируется зарубежный опыт подготовки гидов и методы его внедрения в нашу страну.

**Ключевые слова.** Туризм, паломнический туризм, гид, гид-переводчик, экскурсия, экскурсовод, тур, турист, экскурсант, культурное наследие, туристический ресурс.

## REQUIREMENTS FOR PREPARATION OF ZIYARAH GUIDES IN UZBEKISTAN

**Sokhibova Muslimakhon**  
Doctoral student of the Tourism development institute  
under the Tourism Committee of the Republic of Uzbekistan

**Abstract.** This article analyzes the theoretical foundations of training guides in the field of tourism, reforms in the training of guides in our country, the role of guides in the development of ziyorah tourism, problems and disadvantages associated with the activities of guides in Uzbekistan. In the article, foreign experience in training guides and methods of its implementation in our country are also considered.

**Keywords.** Tourism, ziyorah tourism, guide, guide-translator, excursion, tour leader, tour, tourist, excursionist, cultural heritage, touristic resource.

**Kirish.** Yangi O'zbekistonda turizmni rivojlantirish, mamlakatga turistik tashriflar sonini oshirish, mavjud turistik salohiyatdan samarali foydalanish orqali yurtimizning turistik imijini jahon turistik bozoriga taqdim qilishga oid turli islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda "O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish" [1], "turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik

salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish"[2] hamda "Respublikaning turizm salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va turizm infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, shuningdek, mavjud resurslar va imkoniyatlardan har tomonlama foydalanish hisobiga turizm sohasida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish" [3] vazifalari belgilangan.

O'zbekiston – 2030 strategiyasida xorijiy sayyohlar sonini 15 million, ichki sayyohlar sonini

25 million, ziyorat turizmi bo'yicha tashrif buyurgan sayyohlar sonini 3 million nafarga oshirish, xususiyl investitsiyalarni jalb qilish hisobiga respublikada 30 ta yirik turistik klasterlarini tashkil etish, mehmon o'rinlari sonini kamida 2 barabarga oshirish, tog'li hududlarda 25 ta dor yo'llari qurish, turizm mahallalari sonini 175 taga yetkazish, turistik xizmatlar eksportini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, tibbiyot va ta'lim turizmi eksportini yiliga 1,5 milliard AQSh dollariga yetkazish, jami 1000 dan ortiq elektr quvvatlash stansiyalari, ovqatlanish va hordiq chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarini tashkil qilish rejalashtirilgan. Bunday vazifalarni amalga oshirishda, birinchi navbatda, tashrif buyurgan sayyohlar bilan bevosita aloqaga kirishuvchi, mamlakatning turistik destinatsiya sifatida imijini oshirishga hissa qo'shuvchi gid, gid-tarjimon va ekskursiya yetakchilarini o'qitish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish zarurati mavjud.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Turistlarni o'qitish va malakasiga qo'yilishi lozim bo'lgan talablar masalalari hamda ularning turistik manzil imijiga ta'siri ko'plab xorijiy olimlar tomonidan tadqiq qilingan bo'lsa-da, turizmga gidlarni o'qitish va ularning faoliyatini litsenziyalashga doir yagona unifikatsiya qilingan tizim haligacha mavjud emas. Xususan, Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) va Butunjahon turistik gidlar uyushmalari federatsiyasi (WFTGA) gidlarni tayyorlash bo'yicha bir nechta ko'rsatmalar ishlab chiqqan, ammo ular majburiy joriy qilish xususiyatiga ega emas.

M.Zilinger, M.Jonasson, P.Adolfasson gidlarning tur va turizmga ahamiyati va funksiyalarini muhokama qilgan [4], J.Sandaruwani, WAC.Gnana-pala turistik gidlarning barqaror turim rivojlantirishiga ta'siri va o'rnini tahlil qilgan [5]. Ushbu olimlarning tadqiqot natijalari turli mamlakatlarda gidlar faoliyatini baholash va turizmga ta'sirini belgilab berishda amaliy ahamiyatga ega.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlari tomondan gidlarni tayyorlash, ayrim turlarni tashkil etishda gidlarning malakasiga qo'yiladigan talablarni tavsiflash Y.S.Shestakova [9] tomonidan o'rganilgan. K.G.Tomilin esa turizmga faoliyat olib boruvchi mutaxassislarni tayyorlash va ularni sertifikatlash, sohada jahon tajribasi, muammo va istiqbollarni yoritib bergan [10]. V.A.Korablyov esa Qozog'istonda gid va instruktorlarni tayyorlash muammosiga nazariy yondashuv tahlilini amalga oshirgan [11].

Respublikamiz iqtisodchi olimlaridan M.M.Turdiyev, S.Q.Qodirqulova o'z ilmiy ishida turizm sohasida gid hamrohligining o'rni va asosiy

xususiyatlari tahlilini amalga oshirdi [6], N.Fayzulayeva esa turizm sohasidagi mutaxassislarini tayyorlashning psixologik jihatlarini ko'rib chiqqan [7], B.Jumayev O'zbekistonda gastronomik turizm sohasida kadrlar tayyorlash masalasini tahlil qilgan va zarur tavsiyalar ishlab chiqqan [8] bo'lsa-da, O'zbekistonda aynan turizmning ziyorat yo'nalishida gidlarning malakasiga qo'yiladigan talablar, xalqaro tajriba va uni mamlakatimizga joriy qilish masalalari to'liq yoritilmagan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida turizmga gidlarni tayyorlashning nazariy asoslari o'rganildi, mavzuga bog'liq ko'plab ilmiy nashrlar talqin qilindi, ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda ilmiy mushohada, qiyosiy va trendli tahlil, omilli va tarkibiy tahlil, statistik, tahlil usullaridan keng foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** Hozirda yurtimizda turizm sektorini rivojlantirish, mavjud turistik resurs va salohiyatdan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Mamlakatga tashrif buyurayotgan sayyohlar sonini oshirish uchun mintaqalarda turizmning istiqbolli turlarini rivojlantirish, ekskursiya xizmatlarini takomillashtirish, xalqaro standartlarga javob beradigan gid va ekskursiya yetakchilarini tayyorlash zarurati vujudga keladi.

2019-yilning 18-iyulida yangi tahrirda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining 549-sonli Qonuni 3-moddasida, gid (gid-tarjimon) deganda, axborotiga oid tashkiliy xizmatlar ko'rsatish, turistlar va ekskursantlarni vaqtincha bo'lish, mamlakatidagi turistik resurslar bilan tanishtirish uchun kasbiy jihatdan tayyorgarlik ko'rgan shaxs tushuniladi [14].

Mamlakatda turistik xizmatlar sifatini baholashning bir necha mezonlari mavjud bo'lib, ulardan biri xizmat ko'rsatish darajasi hisoblanadi. Ziyorat turizmida faoliyat olib boradigan gidlarning tashrif buyurayotgan ziyoratchilarga xizmat ko'rsatish sifati ularning bilim va malaka darajasidan tashqari xodimlarning samimiyligi, professionaligi, psixologik tayyorgarligi va mehmondo'stligida aks etadi.

Gidlarni tayyorlashda muhim masalalardan biri ularni kadr sifatida tayyorlashda bosqichma-bosqich o'sish konsepsiyasini joriy etishdir. Mazkur konsepsiyani joriy etish uchun dastavval turizmni rivojlantirish konsepsiyasining mohiyatiga ahamiyat berish lozim. Turizmni rivojlantirishni Turizm 1.0, Turizm 2.0, Turizm 3.0 va Turizm 4.0 kabi bosqichlarga bo'lish konsepsiyasi Philip Lawrence va Tunçay İşik tomonlaridan ishlab chiqilgan va turizm sanoatida keng qabul qilingan [Ошибка! Источник ссылки не

## REKREATSIYA VA TURIZM

larining tavsiti keltirilgan.

### Turizm 1.0

1-bosqich turizmning o'ziga xos shakllari bilan tavsiflanadi, bunda sayohat faqat badavlat kishilar uchun mavjud bo'lib, asosan ziyorat va madaniy sayohatlardan iborat bo'lgan.

### Turizm 2.0

2-bosqich ommaviy turizmning rivojlanishi va ommaviy iste'molchi uchun paketli turlar, ommaviy havo qatnovlari va mehmonxonalarning paydo bo'lishi bilan bog'liq.

### Turizm 3.0

3-bosqich barqaror turizmga, jumladan, mahalliy madaniyatga hurmat, ekologik barqarorlik va mahalliy aholini turizm industriyasini rivojlantirishga jalb etishga urg'u beradi.

### Turizm 4.0

4-bosqich turistik tajribani yaxshilash va turistik resurslarni boshqarish uchun sun'iy intellekt (Artificial intelligence), katta ma'lumotlar (Big Data), internet vositalari (Internet of things) va virtual reallik kabi rivojlanayotgan texnologiyalardan foydalanish bilan tavsiflanadi.


### 1-rasm. Turizmni rivojlantirishning bosqichlarga bo'lish konsepsiyasi tavsifi

*Manba:* muallif ishlanmasi.

Hozirgi vaqtda turizm rivojlanishi yangi bosqichi – Turizm 5.0 ning umumiy qabul qilingan ta'rifi yoki konsepsiyasi mavjud emas. Biroq Turizm 5.0 barqaror va raqamli turizmni yanada rivojlantirish, shuningdek, sayohatchilar tajribasini yaxshilash hamda turizm industriyasining barqaror rivojlanishiga hissa qo'shish uchun texnologiya va innovatsiyalarni chuqurroq jalb qilish bilan bog'liq bo'lishini taxmin qilish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, turizmni bosqichma-bosqich rivojlantirish konsepsiyasi soha evolyutsiyasini tavsiflash uchun samarali

vosita bo'lib, turizm industriyasi oldida turgan asosiy tendensiyalar va muammolarni aniqlashga yordam beradi. Xususan, turizm sohasida malakali kadrlar, jumladan, gidlarni tayyorlash jarayonini ham turizmni rivojlantirish konsepsiyasiga o'xshash bosqichlarga ajratish mumkin. Tadqiqot jarayonida turizmni rivojlantirishning bosqichma-bosqich konsepsiyasini tahlil qilib, turizmda gidlarni tayyorlashning konsepsiyasi mualliflar tomonidan ishlab chiqildi va uni quyidagicha ifodalash mumkin (2-rasm).



### 2-rasm. Turizmda gidlarni tayyorlashning bosqichma-bosqich rivojlanishi konsepsiyasi

*Manba:* muallif ishlanmasi.

Birinchi bosqichda gidlar tarjimon yoki ma'lumot beruvchi bo'lib, diqqatga sazovor joylar

va mamlakat tarixi haqida asosiy ma'lumotni taqdim etishgan. Ikkinchi bosqichda, gidlar ommaviy

turizmning rivojlanishi bilan professional tayyorlikdan o'tadi. Ular ekskursiyalarni tashkil etish, guruhlar bilan ishlash va mijozlar bilan muloqot qilish bo'yicha treningdan o'tadi. Uchinchi bosqichda gidlar yanada chidamli va mas'uliyatli bo'ladi. Ular mahalliy madaniyatni hurmat qilish, ekologik barqarorlik va mahalliy hamjamiyatga sayyohlarni jalb qilishni o'rganadi. To'rtinchi bosqichda raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarning rivojlanishi bilan ekskursiya gidlari turistlar tajribasini yaxshilash uchun mobil ilovalar, virtual sayohatlar, interaktiv xaritalar va boshqa texnologiyalar kabi innovatsion vositalardan keng foydalanishni boshlaydilar.

Ushbu bosqichlarning har birida turizm

bo'yicha kadrlar tayyorlash va gidlar tayyorlash sayyohlarga sifatli xizmat ko'rsatish, turizm tajribasini takomillashtirish va soha barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Turizm sohasida kadrlar tayyorlashda turistlarning o'zgaruvchan talab va umidlarini, shuningdek, yangi texnologik imkoniyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Turizm sohasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida so'nggi yillarda turoperator va turagentliklar, gid-ekskursovodlar, turizm sohasida band aholining soni ortib borayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval

**Turizm sohasi subyektlari sonining o'zgarish tendensiyalari**

Ko'rsatkichlar nomi	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Turoperatorlar va turagentliklar soni	749	1005	1481	1346	1437	1838	2725
Gid-ekskursovodlar soni	-	574	773	816	2400	1309	2551
Turizm sohasida bandlar soni, ming nafar	187,6	201	260,1	201,3	239,1	260,4	330,0
Joylashtirish vositalari (mehmon uylaridan tashqari)	767	914	1188	1308	1361	2035	2068
Oilaviy mehmon uylari	-	106	886	1386	2365	3202	3458
Xonalar (mehmon uylari bilan birga)	18588	20491	28470	32412	399005	11045	11579
Joylar (mehmon uylari bilan birga)	37065	41937	61945	72769	87057	28073	30728

Manba: <https://uzbektourism.uz/> ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

1-jadvalga ko'ra, turizm sohasi subyektlari sonining o'zgarish tendensiyalari quyidagicha: turoperatorlar va turagentliklar soni 2017-yilda 749 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda ularning soni 2725 tani tashkil etgan. Gid-ekskursavodlarning soni 2017-yilda 574 nafar bo'lsa, ushbu ko'rsatkich deyarli 4,5 barobar oshib, 2023-yilda ularning soni 2551 nafarga etgan.

Turizm sohasida bandlar soni 2017-yilda 187,6 ming nafar, 2018-yilda 201,0 ming nafar, 2019-yilda 260,1 ming nafar, 2020-yilda 201,3 ming nafar, 2021-yilda 239,1 ming nafar, 2022-yilda 260,4 ming nafar, 2023-yilda esa 330,0 ming nafar bo'lgan. Mazkur sohada bandlar soni 2023-yilda 2017-yilga nisbatan qariyb 176 foizga ortganligi sohada bandlikni ta'minlash ko'rsatkichlarining ijobiy tomonga o'zgarib borishidan dalolat beradi.

Turistik xizmatlar sohasida joylashtirish vositalari (mehmon uylaridan tashqari) 2017-yilda 767 ta, 2018-yilda 914 ta, 2019-yilda 1188 ta, 2020-yilda 1308 ta, 2021-yilda 1361 ta, 2022-yilda 2035 ta, 2023-yilda 2068 taga yetkazilgan. Joylashtirish vositalari bo'yicha ko'rsatkichlar 2023-yilda 2017-yilga nisbatan 2,6 barobar o'sganligi sohaning investitsiya muhiti jozibadorligining oshishiga xizmat qiladi. Bu borada 2018-

yilda oilaviy mehmon uylari soni 106 tani tashkil etgan. 2019-yilda ularning soni 886 tani, 2020-yilda 1386 tani, 2021-yilda 2365 tani, 2022-yilda 3202 tani, 2023-yilda 3458 tani tashkil etgan. O'z navbatida, joylar (mehmon uylari bilan birga) soni ham 2017-yilda 37065 o'rinni, 2018-yilda 41937 o'rinni, 2019-yilda 61945 o'rinni, 2020-yilda 72769 o'rinni, 2021-yilda 87057 o'rinni, 2022-yilda 28073 o'rinni, 2023-yilda 30728 o'rinni tashkil qilgan.

Zamonaviy dunyoda ma'naviyat, madaniyat va tarixning o'ziga xos uyg'unligini ifodalovchi ziyorat turizmi alohida o'rin egallaydi. Muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, diniy marosimlarda qatnashishga qaratilgan turizmning bu turi o'ziga xos xususiyat va talablarga ega. Ziyorat sayohatlarini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy elementlaridan biri gidning rolidir. Shuning uchun ziyoratchilar uchun unutilmas va ma'naviy boy tajriba yaratishda gidlar faoliyatining ahamiyati, maqsadi va hozirgi kundagi muammolariga alohida urg'u berish lozim.

Butun dunyoda kuzatilayotgan globalashuv jarayonlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining har bir sohaning ajralmas qismiga aylanganligi turizmga mutaxassislarni tayyorlash jarayoniga ta'sir etmay qolmadi. Bugungi kunda

gid va ekskursiya yetakchilarini o'qitish hamda malakasini oshirish bo'yicha 100 ga yaqin online kurslar va mashg'ulotlarni internet tarmog'i orqali topish mumkin. Bundan tashqari O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida "Gid hamrohligi va

tarjimonlik faoliyati (tillar bo'yicha)" yo'nalishi mavjud (2-jadval). Ushbu yo'nalish professional gidlarni tayyorlash va turizm bozorini malakali kadrlar bilan boyitishga xizmat qiladi.

2-jadval

**O'zbekistonda gidlarni tayyorlash bo'yicha mutaxassisliklar va oliy ta'lim muassasalari ro'yxati**

Mutaxassislik nomi	Ta'lim tili	OTM
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: fors tili	O'zbek	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: fransuz tili	O'zbek	Buxoro davlat universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: ingliz tili	O'zbek, rus, qoraqalpoq	Ipak yo'li turizm va madaniy meros xalqaro universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Chirchiq pedagogika universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti, Termiz davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Farg'ona davlat universiteti, Namangan davlat chet tillari instituti, Andijon davlat chet tillari instituti, Andijon davlat universiteti, Qarshi davlat universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: nemis tili	O'zbek	Buxoro davlat universiteti
Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati: turk tili	O'zbek	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

*Manba:* <https://www.goldenpages.uz/uz/abituriyent/direct/61010500/2022/> internet resurs ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Mazkur yo'nalishda talabalar 3 yil tahsil oladi, ammo ta'lim jarayonining asosiy qismi mutaxassislarda tarjimonlik mahoratini rivojlantirishga qaratilgan, natijada alohida turlarni chuqur o'rganmaslik keyinchalik gidlar faoliyatidagi muammo va kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Xususan, ziyorat turizmi haqida gap ketganda, ziyoratchilar, asosan, madaniy obyektlar va ziyoratgohlarning dinga aloqador jihatlariga qiziqadi hamda diniy marosim yoki urf-odatlarini bajarish istagini bildiradilar. Bunda gidlarning vazifasi ularga to'g'ri ko'rsatmalar berish va turli bid'at, diniy urf-odatlarga to'g'ri kelmaydigan xatti-harakatlarga undamaslikdan iborat. Bundan tashqari tashkil etilayotgan ayrim turlarda ziyorat bo'yicha gidlarning malakasi yetishmayotganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ayrim ziyoratgohlarda dafn qilingan shaxslarning payg'ambar yoki pir sifatida gidlar tomonidan e'tirof etilishi e'tiqodli turistlarda turli savol va ixtiloflarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, milliy urf-odatlar, xalqning kundalik an'analari turistga "diniy urf-odat" deb taqdim qilinishi ziyorat turizmning saviyasini tushirib yuboradi.

Masalan, qadimiy daraxt shoxlariga biror mato o'rash orqali davo, farzand yoki biror orzusi ijobat bo'lishini so'rash kabi dinda mavjud bo'lmagan xatti-harakatlarga undash turistlarning

hafsalasini pir qiladi. O'z e'tiqodini yaxshi bilmaydigan turistlar bunday ishlarni bajarishi, keyinchalik esa bundan pushaymon bo'lishi, bilgan turistlar esa bosh tortishi va qolganlarga e'tiroz bildirishi sayohat davomida ortiqcha tushunmovchiliklarga olib keladi. Gidlar nafaqat ziyoratgoh, balki shar'iy qonun-qoidalar to'g'risida birlamchi ma'lumotlarga ega bo'lishi va ziyoratchining turdan umidlarini so'ndirmasligi lozim. Buning uchun gidlar turli dinlar, marosimlar, urf-odatlar, e'tiqod qiluvchilarga ruxsat berilgan va man etilgan faoliyatlardan to'liq xabardor bo'lishlarini ta'minlash lozim. Gidlar tayyorlov jarayonida asl manbalardan o'rganishi, har qanday asossiz adabiyotlarga suyanib qolmasligini inobatga olish kerak.

Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun gidlar yetarlicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, belgilangan talablarga javob berishi lozim. Gidlarga qo'yiladigan talablarni tahlil qilish jarayonida, albatta, xorijiy tajribani inobatga olish zarur. Tadqiqot jarayonida turizm sektori rivojlangan bir qator mamlakatlarning gidlarni tayyorlash bo'yicha malakasi tahlil qilindi, natijada turizm, xususan, ziyorat turizmini rivojlantirish uchun gidlar tayyorlash bo'yicha xalqaro tajriba turli mamlakatlarda o'z xususiyatlari, madaniyati va gidlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan

bo'ldi.

Gidlar tayyorlash bo'yicha o'zining mukammalligi bilan tanilgan davlatlardan biri Yaponiya-dir. Yaponiyada gidlar uchun qat'iy sertifikatlash tizimi mavjud hamda ular madaniyat, tarix va an'analar bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lishi va o'z bilimlarini muntazam yangilab turishi talab etiladi [12].

Yaponiyada gidlarni sertifikatlash talablari juda qattiq va bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi [12]:

1. O'qitish: Sertifikatlash uchun nomzodlar tarix, madaniyat, geografiya, din, turizm va sayohat bilan bog'liq boshqa jihatlarni o'z ichiga olgan maxsus o'quv kurslaridan o'tadilar, shuningdek, ekskursiyalar o'tkazish, sayyohlar bilan muloqot qilish va xavfsizlik texnikasini o'rganadilar.

2. Imtihonlar: Ta'limni tugatgandan so'ng, nomzodlar Yaponiya turizmi va madaniyatining turli jihatlari bo'yicha bilimlarini sinovdan o'tkazadigan imtihonlarni topshirishlari lozim. Imtihonlar yozma testlar, og'zaki imtihonlar va amaliy topshiriqlarni o'z ichiga olishi mumkin.

3. Amaliy mashg'ulotlar: gidlar imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng tajribali mutaxassislar nazorati ostida amaliy mashg'ulotlardan o'tishlari shart. Amaliyot davomida ular sayyohlar bilan ishlash tajribasiga ega bo'ladilar, turli vaziyatlarni joyida hal qilishni o'rganadilar va malaka oshiradilar.

Ta'lim, imtihonlar va amaliyotning barcha bosqichlarini muvaffaqiyatli tugatgandan so'ng, gid Yaponiyada litsenziyalangan ekskursiya gidi sifatida ishlash imkonini beruvchi rasmiy sertifikat oladi. Shuni ta'kidlash kerakki, Yaponiyada ekskursiya gidlari sertifikatining amal qilish muddati cheklangan, shuning uchun gidlar o'zlarining sertifikatlarini yangilash uchun muntazam ravishda bilim va ko'nikmalarini yangilab turishlari kerak.

Aynan ziyorat turizmida gidlarni tayyorlash bo'yicha Saudiya Arabistoni tajribasiga alohida urg'u berish lozim. Saudiya Arabistonida gidlarni sertifikatlash talablari ham juda qattiq va bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi [13**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]:

1. O'qitish: ekskursiya gidi sertifikatiga nomzodlar Saudiya Arabistoni va mahalliy turizm bilan bog'liq tarix, madaniyat, din, geografiya va boshqa jihatlarni qamrab oluvchi maxsus o'quv kurslaridan o'tadilar hamda ekskursiyalar o'tkazish, sayyohlar bilan muloqot qilish va xavfsizlik texnikasini o'rganadilar.

2. Imtihonlar: o'qishni tugatgandan so'ng, nomzodlar Saudiya Arabistoni turizmi, tarixi va

sinovdan o'tkazadigan imtihonlarni topshiradilar.

3. Til bilish: Saudiya Arabistonida gid sifatida ishlash uchun, ko'pincha, arab, ingliz yoki sayyohlar orasida talab qilinadigan boshqa tillarni bilish talab qilinadi.

4. Litsenziyalash: imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirib, kerakli ta'limni olgandan so'ng, gidlar Saudiya Arabistonida rasman ekskursiya gidi sifatida ishlashga ruxsat beruvchi litsenziya olishlari kerak.

Litsenziya olgandan so'ng, gidlar turistlar bilan ishlash, ekskursiyalar o'tkazish va axborot yordamini ko'rsatishni boshlashlari mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, ekskursiya gidlari uchun sertifikatlash va litsenziyalash talablari ular ishlaydigan mintaqa yoki kompaniyaga qarab farq qilishi mumkin.

Saudiya Arabistonida ziyorat turizmida ishlaydigan gidlar uchun ham muayyan talablar mavjud bo'lib, ular gidlarga qo'yiladigan umumiy talablarga qo'shimcha bo'lishi mumkin. Ulardan ba'zilari quyidagilarni o'z ichiga olishi mumkin [13**Ошибка! Источник ссылки не найден.**]:

1. Diniy bilimga ega bo'lish: ziyoratchilar bilan ishlaydigan gidlar Islomning diniy jihatlari va tarixi, ayniqsa, Saudiya Arabistonidagi Makka va Madina kabi ziyorat markazlari haqida chuqur bilimga ega bo'lishi kerak.

2. Diniy urf-odatlarini hurmat qilish: gidlar ziyoratchilarning diniy urf-odatlari va talablariga hurmat ko'rsatishi, ularga qulay va xavfsiz haj safarini ta'minlashi shart.

3. Mahalliy urf-odatlar va odob-axloq qoidalarini bilish: gidlar ziyoratchilarning xavfsizligi va qulayligini ta'minlash uchun, ayniqsa, ziyorat bilan bog'liq holda mahalliy urf-odatlar, an'analar va odob-axloq qoidalarini yaxshi bilishlari kerak.

4. Hissiy (emotsional) qo'llab-quvvatlash: ziyoratchilar bilan ishlaydigan gidlar sayohat davomida yordam ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

5. Axloq va kasbiylikni saqlash: gidlar ziyoratchilar bilan ishlashda yuqori axloqiy va kasbiy mahoratga ega bo'lishlari, har bir ziyoratchining his-tuyg'ularini hurmat qilishlari kerak. Ushbu talablar Saudiya Arabistonida yuqori sifatli va xavfsiz haj safarlarini ta'minlashga yordam beradi.

Umuman olganda, turizm va ziyorat turizmini rivojlantirish uchun gidlar tayyorlash sohasidagi pedagogik tajriba kadrlar tayyorlashga kompleks yondashish, yuqori kasbiy mahorat, madaniy-tarixiy jihatlarga e'tibor qaratish, bilim va ko'nikmalarni doimiy ravishda yangilab borish bilan tavsiflanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqoridagi fikrlar va xorij tajribasini umumlashtirgan holda, ziyorat turizmida faoliyat olib borayotgan gidlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim deb hisoblaymiz:

1. Ziyorat turizmida faoliyat olib boradigan gidlar diniy an'analar va tarixni bilishi, turistlarga ziyoratgohlarning ahamiyati va tarixini asl holatida yetkazish uchun muqaddas qadamjolar, marosimlar va ramzlardan xabardor bo'lishlari kerak.

2. Gidlar turli e'tiqodli ziyoratchilar bilan muloqot qilish qobiliyatiga ega, muloqotga ochiq bo'lishi, turli e'tiqodlarni hurmat qilishi, do'stona va ishonchli muhit yaratish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

3. Ziyorat turizmida faoliyat olib boradigan gidlar ziyoratchilarning ruhiy yo'li va ehtiyojlarini anglashi, sayyohlarni ma'naviy izlanishlarida qo'llab-quvvatlashga, ularga kerakli ma'lumot va yordam berishga tayyor bo'lishlari kerak.

4. Gidlar ziyorat marshrutlarini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak. Ular marshrutlarni rejalashtirish, vaqtni nazorat qilish va sayyohlar guruhining qulay harakatlanishini ta'minlashi kerak.

5. Gidlar ziyoratchilar bilan ishlashga psixologik jihatdan tayyor bo'lishi kerak. Ular sayyoh-

larning his-tuyg'ulariga bag'rikenglik bilan munosabatda bo'lishlari va yuzaga kelgan muammolarni hal qilishda yordam bera olishlari kerak.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda, moddiy obyektlarning bezaklariga tushirilgan yozuvlarni o'qiy olish bo'yicha ko'nikmalarni qo'shimcha qilishimiz mumkin. Mamlakatimizdagi ko'plab madaniy meros obyektlarining kirish qismi, binolarning devoriga bitilgan arab tilidagi yozuvlar, aksariyat hollarda, Qur'on suralaridan olingan. Arab kalligrafiyasining turli stilistikasidan foydalanilganligi uchun ayrim arab tilini bilgan turistlar ham bu yozuvlarni o'qiy olmasligi, arab tilini bilmagan ziyoratchilar esa umuman ahamiyat bermasliklari mumkin. Mazkur yozuvlar gidlar tomonidan tanishtirilishi, o'qib berilishi, oyatning qaysi suradan keltirilganligi va nima maqsadda yozilganligi tahlil qilib berilsa, ziyoratchilarda sayohatdan qolgan tasavvur yanada ijobiy bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, ziyoratchilar uchun uyg'un va yaxlit tajriba yaratishda gidning ziyorat turizmi bo'yicha kasbiy mahorati hal qiluvchi o'rin tutadi. Yuqoridagi talablarga rioya qilish gidlarga o'z missiyasini muvaffaqiyatli amalga oshirishga yordam beradi va ziyoratchilarning sayohatlarini unutilmas va ilhomlantiruvchi xotiraga aylantiradi.

#### **Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030 strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-sonli "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-sonli "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
4. Zillinger Malin, Mikael Jonasson, and Petra Adolffson. "Guided tours and tourism". *Scandinavian Journal of Hospitality and Tourism* 12.1 (2012): 1-7.
5. Sandaruwani, J.A.R.C., and W.A.C. Gnanapala. "The role of tourist guides and their impacts on sustainable tourism development: A critique on Sri Lanka". *Tourism, Leisure and Global Change* 3.2016 (2016): 62-73.
6. Turdiyev M.M., Qodirqulova Sh.O., Salohiddinova U.N. Turizm sohasida gid hamrohligining o'rni va asosiy xususiyatlari. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)* 2.4 (2022): 310-316.
7. Файзуллаева Н. Психологические аспекты подготовки будущих специалистов в сфере туризма. *Инновационное образование. Ташкентский государственный экономический университет. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 2 (2023): 384-388.
8. Jumayev B. O'zbekistonda gastronomik turizm sohasida kadrlar tayyorlash masalasi. *Universiteti xabarlarlari*, 2022. 1/4] ISSN 2181-7324.
9. Шестакова Е.С. Подготовка гидов экологического туризма в системе дополнительного профессионального образования. *Diss. Шестакова Елена Сергеевна*, 2010.
10. Томилини К.Г. Подготовка и сертификация специалистов в туризме: мировой опыт, проблемы, перспективы. *Физическая культура, спорт, туризм: научно-методическое сопровождение*, с. 231-233. 2016.
11. Кораблев В.А. (2019). Теоретические подходы к проблеме подготовки гидов и инструкторов туризма в Казахстане. *Молодежь-науке-х. Актуальные проблемы туризма, гостеприимства, общественного питания и технического сервиса* (с. 126-131).
12. Ekiz, Erdogan, Zafer Öter, and Marcus L. Stephenson. *Tourism development in the Kingdom of Saudi Arabia: Determining the problems and resolving the challenges. International Tourism Development and the Gulf Cooperation Council States*. Routledge, 2017. 124-139.
13. Yamada, Naoko. *Why tour guiding is important for ecotourism: Enhancing guiding quality with the ecotourism promotion policy in Japan. Asia Pacific Journal of Tourism Research* 16.2 (2011): 139-152.
14. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida" 549-sonli Qonuni (<https://lex.uz/docs/-4428097>).
15. Abdurakhmanova G.K., Astanakulov O.T., Goyipnazarov S.B. and Irmatova A.B. 2022. *Tourism 4.0: Opportunities for applying Industry 4.0 technologies in tourism. In The 6th International Conference on Future Networks & Distributed Systems*